

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SATTIBAYEV ISKANDAR ILXAMIDDINOVICH

POETIK TARJIMANING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK VA
LINGVOSTILISTIK TADQIQI
(Robert Byorns poeziyasining o‘zbek tiliga tarjimalari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Sattibayev Iskandar Ilxamiddinovich

Poetik tarjimaning kommunikativ-pragmatik va lingvostilistik tadqiqi (Robert Byorns poeziyasining o‘zbek tiliga tarjimalari misolida).....5

Sattibaev Iskandar Ilkhamiddinovich

The Communicative-Pragmatic and Linguostylistic Study of Poetic Translation
(On the Example of the Uzbek Translations of Robert Burns’ Poetry).....27

Саттибаев Искандар Илхамиддинович

Коммуникативно-прагматическое и лингвостилистическое исследование
поэтического перевода (на примере узбекских переводов поэзии Роберта
Бёрнса).....50

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ53

QO‘QON UNIVERSITETI
HUZURIDAGI FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.03/25.12.2024.Fil.130.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SATTIBAYEV ISKANDAR ILXAMIDDINOVICH
POETIK TARJIMANING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK VA
LINGVOSTILISTIK TADQIQI
(Robert Byorns poeziyasining o‘zbek tiliga tarjimalari misolida)

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5770 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Qo'qon universiteti veb-sahifasining www.kokanduni.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamnazarova Durdona Shuxratillayevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Paluanova Halifa Daribayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dosbayeva Nargiza Turg'unpo'latovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

2024, Fil. 190.02
Dissertatsiya himoyasi Qo'qon universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil "27" "12" soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28-a uy. ADD.03/25.12.

Dissertatsiya bilan Qo'qon universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Qo'qon shahri, Turkiston ko'chasi, 28-a uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil «12» 12 dagi № 2 raqamli reyestr bayonnomasi.



Z.B.Qobilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

M.G'.Najmiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, f.f.d., dotsent

G.M.Oripova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., dotsent

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosidagi madaniy, ilmiy va jumladan adabiy aloqalarining globallashuvi va turli xalqlarning madaniyatlarining mushtaraklashuvi jarayonida qiyosiy tilshunoslik, adabiy tanqid va adabiyotshunoslik, hamda tarjimashunoslik borasida olib borilayotgan ilmiy izlanish va tadqiqotlar juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kundan kunga qiyosiy adabiyotshunoslik, zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fan sohalari nazariy bilim va yondashuvlar hamda empirik dalillar bilan boyib bormoqda. Shu ma'noda ijodkorlarning jahon adabiyoti durdonalariga aylanib ulgurgan asarlarini, xususan, Robert Byornsning she'riyatini ikki millat va ikki til platformasida Romatizm davri mezonlari asosida talqin qilish muhim ahamiyatga ega. Badiiy tarjima millatlararo munosabatlarni mustahkamlanishining muhim omili sifatida tillararo muammolarni hal qilish bilan bir qatorda xalqlarning ongi, qadriyatlarini va madaniyatini o'rganishda ishonchli vosita hisoblanadi. Zero, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarjimashunoslik singari bir qator fanlar kesishuvida muallif uslubiga nisbatan qo'llanilayotgan yondashuv, ijodkorning ichki olamini, ong va tafakkurini, falsafiy-estetik qarashlarini, yashagan zamon va makon xususiyatlarini badiiy tarjima aspektida yoritish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligi va tarjimashunosligida Robert Byornsning badiiy ijodi. U tegishli bo'lgan davr, muallif asarlarining lingvistik tahlili hamda turli jahon tillariga tarjimalari borasida ko'plab ilmiy va ijodiy ishlar olib borilgan bo'lib, ularning aksariyati lingvistik, badiiy-uslubiy, leksik-semantik va lingvopoe'tik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, tarjima jarayonida muallif uslubini saqlab qolish va kontekstual tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda turli tillarda uslubning muallifning olamni anglash usuli sifatida barcha elementlarini jamlagan holda, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka e'tibor qaratish muhimdir. Byornsning she'riyatida badiiy, g'oyaviy, ma'naviy va poetik jihatlarni yoritish, Romantizm davrining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish nazariy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Mustaqillik davriga kelib, ilgari asl tillardan bilvosita tarjima qilingan asarlarni aslyatdan tarjima qilish ommalashib bormoqda. Shu jihatdan "...jahon adabiyotining eng sara namunalari o'zbek tiliga va o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish ishlarining tanqidiy tahlili"¹ bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Bu vazifalarning bajarilishi uzoq muddatli muhim yo'nalish sifatida belgilab qo'yilishi adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalarda ham tadqiqotlar miqyosi va ko'rsatkichlarini yanada ko'tarishga keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, Robert Byorns ijodiga mansub she'riy asarlarning bevosita va bilvosita tarjimalaridagi tarjimon mahorati, badiiylik konsepsiyasi, ularning lingvopoetik xususiyatlarini atroflicha ilmiy asosda tekshirish tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi farmoyishi. // Xalq so'zi, 2017-yil 13-yanvar. – № 9 (6703).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 maydagi “Jahon adabiyotining eng sara namunalari o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 376-sonli Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kommunikativ-pragmatik yondashuv tarjima nazariyasida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng qo‘llanila boshladi. Tadqiqotning umumiy nazariy asosini Y.Nayda, J.Ketford, P.Nyumark², A.Fedorov, V.Komissarov, L.Barxudarov³, I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Komilov, G‘.Salomov⁴ kabi olimlarning ishlari tashkil qiladi: ularning yondashuvlarida tarjimada “pragmatik adaptatsiya” masalasiga e‘tibor qaratilib, tarjimonning vazifasi nafaqat ma‘noni, balki nutqiy vaziyatni, auditoriya ehtiyojini va kommunikativ sharoitni hisobga olishdan iborat ekanligi ilmiy asoslab berilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ingliz romantizm davri ijodkorlari, xususan Robert Byorns poeziyasi tarjimasida g‘arbiy adabiyotshunoslikda qadimdan alohida e‘tibor bilan o‘rganib kelingan. Burns asarlarining poetik strukturalari va lirik tematikasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Jumladan, J.Kinzli⁵ Byornsning she‘rlarini ilmiy tanqidiy nashrda to‘plab, uning lingvopoetik xususiyatlarini yoritgan bo‘lsa, R.Krouford⁶ o‘zining mashhur “The Bard” asarida shoirning biografiyasi bilan bir qatorda uning asarlari tarjimasida yuzaga keladigan muammolarni ham muhokama qiladi.

² Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965. – 214 p.; Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.; Newmark P. Approaches to Translation. – Oxford: Pergamon Press, 1981. – 276p.

³ Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1983. – 303 с.; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.; Бархударов Л. С. Язык и перевод (вопросы общей и частной теории перевода). М., 1975.;

⁴ G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. – B. 56-57.; Komilov N. Xorazm tarjima maktabi (XIX asr tarjima tarixini tipologik va qiyosiy tadqiq etish muammolari): Filol. fanl. doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 1988.; Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, 1978.; Salomov G‘. Til va tarjima. Toshkent, 1966.

⁵ Burns R. The Poems and Songs of Robert Burns / ed. J. Kinsley. – Oxford : Clarendon Press, 1968. – 3 vols. – Vol. I. Text – 538 p.; Vol. II. Text – 459 p.; Vol. III. Commentary – 684p.

⁶ Crawford R. The Bard: Robert Burns, A Biography. – Princeton : Princeton University Press, 2009. – 480 p.

T.Krouford va K.Makguirk⁷ Byorns poetikasining sentimental davrga xos xususiyatlarini, stilistik qatlamlarini va tarjima qilishdagi poetik ekvivalentlik masalalarini tahlilga tortgan. L.McIlvanney⁸ esa Byornsning siyosiy pozitsiyasini aks ettiruvchi she'rlarining tarjimasini ijtimoiy-kontekstual nuqtai nazardan ko'rib chiqqan.

Rus tarjimashunoslik maktabida ham Robert Byornsning she'riy merosi keng o'rganilgan. Samuil Marshakning⁹ tarjimalari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Marshak faqat tarjimon emas, balki Byornsning uslubiy xususiyatlarini rus poetikasiga moslab yaratgan adaptator sifatida ham tan olingan. Uning tarjimalarida sadoqat va erkinlik o'rtasidagi muvozanat, xalqona ohang va ritmik strukturalarning moslashuvi chuqur tahlillarga sabab bo'lgan. Bu jarayon tarjimaning ideologik komponenti bilan ham bog'liq bo'lib, sovet davridagi tarjima siyosati kontekstida izohlangan. Masala ustida izlanishlar D.N.Jatkin, O.P.Alekseyeva va Y.A. Baxnova¹⁰ singari yetuk tilshunos-tarjimashunoslar tadqiqotlarida yanada yangi pog'onalar olib chiqildi.

O'zbek tarjimashunoslik maktabida Robert Byorns poeziyasi tarjimasini bo'yicha alohida monografik tadqiqotlar mavjud emas, ammo ayrim taniqli shoir va tarjimonlar, masalan, Mirtemir, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, G'afur G'ulom, Xurshid Davron¹¹ tomonidan Byorns she'rlari asosan ruscha versiyalar asosida o'zbek tiliga o'girilgan; ular badiiy jihatdan yuksak bo'lsa-da, asliyat matni bilan o'zaro qiyosiy tahlillari yetarlicha amalga oshirilmagan. Ayni paytda, tarjima jarayonida poetik shakl, ritmik va fonetik konservatizm, milliy obrazlar, dialektal birliklar, xalqona nutq elementlarining saqlanish darajasi ilmiy asosda o'rganilmagan.

Shu asosda, mavjud ilmiy adabiyotlar g'arbiy, rus va qisman o'zbek tillaridagi tarjimalarda Robert Byorns poeziyasining ayrim jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, o'zbek tiliga tarjima qilingan she'rlarning stilistik, semantik va poetik sadoqat darajasini qiyosiy-analitik tahlil qilish, ayniqsa, original matn bilan bevosita o'zbekcha variantlarni solishtirishga asoslangan ilmiy izlanishlar yetarli emas. Bu esa, o'z navbatida masalaning bevosita tarjima matnlari orqali ilmiy tadqiqqa tortilishini dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yadi.

⁷ McGuirk, C. Robert Burns and the Sentimental Era. – Athens, GA : University of Georgia Press, 1985. – 320 p.

⁸ McIlvanney, L. Burns the Radical: Poetry and Politics in Late Eighteenth-Century Scotland. – East Linton : Tuckwell Press, 2002.–240p.

⁹ Marshak S. Articles and letters on Burns and Scotland. Collected Works in Eight Volumes. Vols. 6 and 8. Moscow: Khudozhestvennaja Literatura, 1971-2. (Vol. 6, pp. 343-5) 'To the immortal memory' (Vol. 6, pp. 346-50) Kaloh Vid N. Prefaces in Soviet translations of Robert Burns's poetry as ideological tools // Target. – T.34. – 2022. – №. 2. – С.251-277.

¹⁰ Жаткин Д.Н. У истоков русской рецепции поэзии Роберта Бернса // Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Гуманитарные науки. – 2015. – №. 3 (35). – С. 104-118.; Алексеева О. П. Передача художественной образности при переводе поэтического текста (на материале поэзии Р. Бёрнса) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Т. 17. – 2024. – №. 2. – С. 433-437.; Бахнова Ю. А. Отличительные характеристики перевода поэзии в контексте гендерных различий (на материале произведений Р. Бёрнса) // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Т.16. – 2023. – №. 6. – С.1695-1701.

¹¹ Byorns R. She'rlar. Xurshid Davron. [Elektron manba] // URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/Uzbek/robert-byorns-she'rlar.html>, svobodnyy (murojaat sanasi: 12.06.2024).

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejaları bilan bog'liqligi. Tadqiqot Andijon davlat universiteti fakultetlararo chet tillar (ijtimoiy va gumanitar fanlar) kafedrası “Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” ilmiy tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tarjimaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini romantizm davri ijodkorlari, xususan, Robert Byorns poeziyasi misolida badiiy uslub, bilvosita (rus tili orqali) va bevosita (asliyat matnidan) tarjima kesimida tahlil qilish va tegishli tavsiyalar berish kabi masalalardan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon adabiyoti taraqqiyoti kontekstida tarjimashunoslik fanining shakllanishi va funksional vazifalarini tahlil qilish. Bu vazifa doirasida tarjimaning madaniyatlararo vosita sifatidagi roli, adabiy merosni ommalashtirishdagi o'rni, shuningdek, tarjima faoliyatining poetik, kommunikativ va pragmatik qirrada namoyon bo'luvchi ta'sirini o'rganish;

Robert Byornsning romantizm adabiy maktabidagi o'rni, individual lirika va xalqona she'riyat o'rtasidagi sintez, romantizmga xos tabiiylik, ichki kechinma, milliy ruh, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat kabi kontseptlar bilan bog'liq aspektlarni aniqlanash;

tarjima faoliyatida tematik komponentlarning adekvat ifodasini ta'minlashga ilmiy asos bo'lib xizmat qiluvchi omillarni aniqlash;

Robert Byorns asarlarining rus va o'zbek tillariga tarjimalarini tahliliy nuqtai nazardan ko'rib chiqish, ushbu tarjimalar orasida asliyatga yaqinlik darajasi, stilistik uslubga sadoqat, poetik ekspressivlik va semantik o'zgarishlarga asoslangan lingvopoetik taqqoslashni amalga oshirish;

Robert Byornsning nazmiy asarlarining o'zbek tiliga amalga oshirilgan bevosita (asl matndan) va bilvosita (oraliq til – rus tili orqali) tarjimalarini lingvopoetik mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilish; tarjimonning shaxsiy poetik didi, uslubiy pozitsiyasi, oraliq tillar (asosan rus tili) orqali ijodiy ta'sirlanish darajasi, shuningdek, Byorns poetikasiga xos obraz, metafora va lirik ohanglarning o'zbek poetik tizimida qanday aks etganini aniqlash.

Tadqiqotning obyektini romantizm davri ijodkorlari, xususan, Robert Byorns she'rlarining asliyat, ruscha va o'zbekcha tarjimalari matnlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini romantizm davri ijodkorlari, xususan, Robert Byorns ijodiga mansub she'rlarning rus va o'zbek tillariga tarjimalarida aks etuvchi kommunikativ-pragmatik jihatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, chog'ishtirma, tarjima, analogiya, badiiy tarjima matnlarining qiyosiy tahlili, nominatsion-motivatsion, struktural, tipologik-tasnifiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagidan iborat:

poetik tarjimaning konseptual asosi sifatida diskursiv rekonstruksiya tamoyili olinib, u she'riy matnga xos bo'lgan kommunikativ-pragmatik jihatlarni adekvat tarzda ifodalash, ya'ni mualliflik kommunikativ niyatini, emotsional ohang, stilistik

dominantlarni qayta tiklash orqali nafaqat semantik ekvivalentlikni, balki matnning kommunikativ dinamik va estetik integralini ham saqlab qolishni ta'minlashi asoslangan;

poetik diskursda muallifning individual uslubi bilan tarjimonning ijodiy interpretatsiyasi o'rtasidagi stilistik va ekspressiv tafovutlar (*leksik tanlov, sintaktik qurilish, ritm va ohang, obrazlilik va metaforika, ekspressivlik darajasi, pragmatik funksiyalar, stilistik dominantalar*) lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilinib, bu jarayonda tarjimonning estetik qarashlari, professional kompetensiyasi va nutqiy pozitsiyasining roli aniqlangan;

Robert Byorns poeziyasi tarjimasi orqali she'riy matni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girish strategiyalari ilk bor tizimli ravishda besh muvozanat modeli kesimida (*mazmuniy, funksional, struktural, pragmatik va stilistik*) asoslab berildi va har bir modelda o'zaro moslikni ta'minlovchi til vositalari, tarjima strategiyalari va adekvatlik mezonlari dalillangan;

Robert Byorns poeziyasining o'zbekcha tarjimalarida *ohang, qofiya, vazn va ritmni* qayta yaratishning poetik imkoniyatlari va o'zbek she'riy tizimining o'ziga xos metrik qonuniyatlari ingliz poetikasiga moslashtirilganlik darajasi aniqlanib, aslyat matnidagi milliy konnotatsiyalar, ijtimoiy-madaniy ramziylik va nutq realiyalari o'zbekcha talqinda qanday ifodalanganligi lingvokulturologik tahlil asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Robert Byorns nazmiy asarlari tarjimalarining badiiy ijodga ta'siri, bevosita va bilvosita qilingan tarjimalarda so'zlarning berilishi va ularning ifodalagan jilolari aniqlanib, olingan xulosalar shoir ijodining yanada chuqurroq o'rganilishi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

muallif tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan Robert Byorns she'rlari tarjimalarini o'rganish va tahlil qilish orqali dissertatsiya mazmuni va natijalari zamirida zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligini Robert Byorns she'rlari an'analari bilan boyitishda muhim qo'llanma vazifasini o'tashi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, badiiy tarjima matnlarining qiyosiy tahlili kabi usullar bilan asoslangani, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar faktik til materiallari, chop etilgan risola, maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, matnlar tahlili qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik tahlil qilish metodlari asosida olib borilgan natijalarning vakolatli tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan yangi janrlar, yo'nalishlarni o'rganilganligi, ularning o'zbek adabiyotshunosligi(tarjimashunosligi)ga ta'sir etayotganini aniqlanganligi hamda Byorns ijodiga mansub she'rlarning nazariy va milliy-madaniy xususiyatlari yoritilganligi, ularning o'ziga xos, nihoyatda murakkab turkumiy shaklga ega ekanligi, Byorns she'rlari tarjimonlarining individual mahorati tahlil qilinganligi, tarjimalarini qiyosiy o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalar Respublika oliy o'quv yurtlarida "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiy aloqalar", "Zamonaviy she'riyat", "Tarjima amaliyoti", "Tarjima nazariyasi" fanlari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda, magistrlik ishlarini bajarishda, ingliz tili va adabiyoti yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar, o'qituvchilar foydalanishlari uchun adabiyot tarixidan maxsus kurslar yaratishda xizmat qiladi hamda undan adabiyotshunoslik va tarjimonlik bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar amaliy va ilmiy izlanishlarida foydalanishlari mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsifiya va ishlanmalar asosida:

poetik tarjimaning konseptual asosi sifatida diskursiv rekonstruksiya tamoyili olinib, u she'riy matnga xos bo'lgan kommunikativ-pragmatik jihatlarni adekvat tarzda ifodalash, ya'ni mualliflik kommunikativ niyatini, emotsional ohang, stilistik dominantalarni qayta tiklash orqali nafaqat semantik ekvivalentlikni, balki matnning kommunikativ dinamizmi va estetik integralini ham saqlab qolishni ta'minlashi hamda badiiy tarjimada uchraydigan lisoniy (grammatik, fonetik, leksik, sintaktik) va ekstralingvistik (pragmatik) omillar tahlili asosida ekvivalent tarjima tamoyillari hamda ularga erishish uchun qo'llaniladigan tabdil usullarining eng samaradorlari miqdoriy jihatdan aniqlangan ilmiy natijalari va materiallaridan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi badiiy kengash hisobot yig'ilishida, yosh tarjimon to'garagi va adabiy kechalarida foydalanildi (O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining 2025-yil, 22-iyul 01-03/216 sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy loyiha ishining mazmuni yangicha materiallar va loyiha ishlanmalari bilan boyitildi;

poetik diskursda muallifning individual uslubi bilan tarjimonning ijodiy interpretatsiyasi o'rtasidagi stilistik va ekspressiv tafovutlar (leksik tanlov, sintaktik qurilish, ritm va ohang, obrazlilik va metaforika, ekspressivlik darajasi, pragmatik funksiyalar, stilistik dominantalar) lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilinib, bu jarayonda tarjimonning estetik qarashlari, professional kompetensiyasi va nutqiy pozitsiyasining roli xususidagi mulohazalardan ingliz madaniyatiga oid poetik obrazlarni o'zbek talabalari uchun tushunarli shaklda qabul qilinish mexanizmlarini ishlab chiqishda, shuningdek, tarjimada poetik vositalarning ekvivalent transformatsiyasi, xususan, metafora, inversiya, parallelizm kabi stilistik vositalarni adekvat tarzda berilishiga oid xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan loyiha shifri SUZ-800-21GR-3181, shartnoma raqami VH33594913 bo'lgan "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida qo'llanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025 yil, 19-may 04-2018 sonli ma'lumotnomasi). Natijada ingliz tilini loyiha doirasida o'qitishda a'naviy shakllardan chiqib, badiiy tarjima sohasidagi innovatsiyalarga asoslangan hamda madaniyatlararo hamda tillararo hamkorlik va o'zaro tushunishni o'z ichiga olgan kommunikativ-amaliy topshiriqlar, ijodiy yozma ishlar, matnli mashqlar tatbiq etildi va shu asosda lisoniy, badiiy

tafakkur va nutqiy ijodkorlikni shakllanishiga xizmat qiluvchi yondashuvlar tizimi ishlab chiqildi;

Robert Byorns poeziyasi tarjimasini orqali she'riy matnni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girish strategiyalari ilk bor tizimli ravishda besh muvozanat modeli kesimida (mazmuniy, funksional, struktural, pragmatik va stilistik) asoslab berildi va har bir modelda o'zaro moslikni ta'minlovchi til vositalari, tarjima strategiyalari va adekvatlik mezonlari xususidagi ilmiy xulosalardan 2023-2025 yillarda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida amalga oshirilayotgan AL-672205602 raqamli "Ko'zi ojizlar uchun spelling audio dictionary" nomli loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining 2025-yil 14-aprel 04-03/317 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, foydalanuvchi interfeysi va eshitish materiali o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga yo'naltirilgan lingvistik tavsiyalar ishlab chiqishda va audio resurslar orqali tinglovchilar nutqini yanada aniqroq anglashiga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan;

Robert Byorns poeziyasining o'zbekcha tarjimalarida ohang, qofiya, vazn va ritmni qayta yaratishning poetik imkoniyatlari va o'zbek she'riy tizimining o'ziga xos metrik qonuniyatlari ingliz poetikasiga moslashtirilganlik darajasi aniqlanganligi, asliyat matnidagi milliy konnotatsiyalar, ijtimoiy-madaniy ramziylik va nutq realiyalari o'zbekcha talqinda qanday ifodalanganligi oid tahliliy fikrlari va nazariy xulosalaridan "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining "Agar" dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 23-iyun 01-20/475 sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari teletomoshabinlarni ingliz tilidagi she'rlarining o'zbek tiliga tarjima qilishdagi o'ziga xos xususiyatlari, farqli va o'xshash jihatlari bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari yuzasidan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnalda 4 ta maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, dissertatsiyaning fan va texnologiyalarni shakllantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi,

natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Tarjima – ijodiy jarayon: nazariy asoslar va amaliy tadqiqot yo‘nalishlari”** deb nomlangan bo‘lib, uning **“O‘zbek poetik tarjima maktabining taraqqiyoti va tadqiqot yo‘nalishlari”** deb nomlanuvchi birinchi fasli o‘zbek poetik tarjima maktabining taraqqiy etish tarixiga nazar tashlab, o‘zbek tiliga badiiy tarjima qilish tarixini xronologik tartibda ko‘rib chiqadi.

Mavzu boshida shuni ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo hududida tarjima qilish jarayonlari VIII-XI asrlarda Farobiy, Ibn Sino va Beruniy kabi mashhur olimlar faoliyati bilan boshlangan¹². Biroq bu davrdagi tarjimalar nazariy yoki amaliy jihatdan biz uchun katta ahamiyat kasb etmasligi sababli tadqiqotimiz uchun tarixiy manzarani aniqroq shakllantirishda zaruriy omil sifatida ko‘rib chiqiladi, xolos.

Tarjima tarixi haqida so‘z borganda akademik N.Karimov turkiy hamda o‘zbek tillarini mushtarak holatda ko‘rgan va o‘zbek tili ishtirokidagi tarjimalar tarixini XIV asrga oid deb hisoblaydi¹³.

Biroq, boshqa tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, zamonaviy o‘zbek tili asosan XX asr davomida me’yorlashtirilgan bo‘lib¹⁴, uning fonologik standartlari Toshkent shevasi, morfologik jihatlari esa, Farg‘ona shevasi asosida ishlab chiqilgan¹⁵.

Keyingi davrlarda, jumladan XIV asrdagi o‘zbek tarjimonligi vakili o‘laroq Sayfi Saroiyni (1321-1398) e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. Uning tarjimalari xalqona bo‘lib, asl matnning ifodaviyligini saqlaganligi bilan ajralib turadi¹⁶.

XV asr tarjimachiligining eng yirik namoyondalari o‘laroq Haydar Xorazmiy, Lutfiy hamda Alisher Navoiy kabi ijodkorlarni sanab o‘tish joiz¹⁷.

Afsuski, XV va XIX asr oraliq‘idan to Muhammad-Rizo Ogahiyning (XIX asr) tarjimonlik faoliyatigacha aniq ma’lumotlar mavjud emas.^{18”}

XVIII asr tarjimonlik faoliyatiga oid ma’lumotlarda ham bir qator noaniqliklar va hattoki ziddiyatlarga guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, O.Mo‘minovga ko‘ra Abu Ja’far Mukhammad bin Jarir Tabariy qalamiga mansub “Tarixi Tabariy” asari o‘zbek tilining Qoshg‘ar lahjasiga XVIII asrda tarjima qilingan. Biroq, ushbu tarjimoni aynan kim amalga oshirgani ma’lum emas¹⁹.

XIX asr o‘zbek tarjimachiligida Muhammad Rizo Ogahiy muhim o‘rin tutadi. Garchi uning tarjima uslubi hozirgidan farq qilsa-da, u asar mazmuni va go‘zalligini yo‘qotmagan²⁰.

XIX asr o‘zbek tarjimachiligida Furqat va Komil Xorazmiy ham muhim o‘rin egallaydi. Furqat fors-tojik tilini mukammal bilgan holda Sharq klassik adabiyotidan

¹² G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – B.56-57.

¹³ Karimov N. Tarjima san'ati va jahon adabiyoti // Jahon adabiyoti, 10-son, 2017, – B.185.

¹⁴ Fierman W. Language Planning and National Development. The Uzbek Experience. Mouton de Gruyter. – Berlin. – New York, 1991. – P.2.

¹⁵ Andrés J.E. Bodrogligeti. Modern literary Uzbek. – Lincom Europa, 2002. – P.24.

¹⁶ G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. *Tarjima nazariyasi*. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – B.63-64.

¹⁷ Muminov O., Sunnatov O., Translation History (Europe And Central Asia). – Toshkent, 2008. – P.91-92

¹⁸ Hamidov X.X. Tarjimashunoslik fanidan ma'ruza matnlari. – Toshkent, 2012. – B.24.

¹⁹ Muminov O., Sunnatov O., Translation History (Europe And Central Asia). – Toshkent, 2008. – P.96.

²⁰ Ogahiy Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li. Asarlar. 6 jildlik. (Nashrga tayyorlovchi Karimov F. Mas'ul muharrir Dolimov S.) – Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1974. Jild 3. Tarjimalar. – B.5-6.

bir qancha asarlarni o‘zbek tiliga she‘riy va nasriy yo‘l bilan tarjima qilgan. U, shuningdek, rus adabiyotidan ham tarjimalar qilgan²¹. Komil Xorazmiy esa Xorazmda faoliyat yuritib, forschadan o‘zbek tiliga “Mahbub-ul-qulub” va “Latoyifat-tavoyif” kabi asarlarni tarjima qilgan²².

XX asr mobaynida o‘zbek tili bilan aloqador tarjimonlik faoliyatida keskin o‘shishni kuzatish mumkin²³. XX asrda o‘zbek tarjimachiligi miqdoriy emas, balki sifat jihatidan ham rivojlandi. Bu rivojlanishga siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy omillar sabab bo‘ldi, desak adashmaymiz.

XX asr boshlarida O‘zbekistonda jadidchilik harakati yuzaga kelib ularning vakillari jahon adabiyotini o‘zbek xalqiga tanishtirish maqsadida tarjima bilan ham faol shug‘ullandilar. Jumladan, Cho‘lpon Shekspirning “Hamlet” tragediyasini 1934 yilda nasriy yo‘l bilan tarjima qilgan²⁴.

XX asr davomida inglizabon va boshqa jahon adabiyoti vakillarining asarlari o‘zbek tiliga tobora ko‘proq tarjima qilina boshlandi. Shekspirning “Hamlet” tragediyasi bir necha bor tarjima qilinib, M. Shayxzodaning 1948 yildagi she‘riy tarjimasini eng mukammali deb e‘tirof etildi. XX asrning ikkinchi yarmida yavropalik va amerikalik yozuvchilarning asarlarini o‘z ona tilida o‘qish imkoniga ega bo‘ldilar. Tarjimachilar orasida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Qodir Mirmuhammedov, Mirtemir, Muhammad Ali kabi mashhur shoir va adiblar faol ishtirok etdilar²⁵.

Bobning Diskursiv rekonstruksiya – she‘riy tarjimada asliyat matnining kommunikativ-pragmatik xossalarini muvofiqlashtiruvchi jarayon sifatida deb nomlanuvchi ikkinchi faslida she‘riy tarjima masalasini tahlil qilishda “asar”, “matn” va “diskurs” tushunchalari tahlil etiladi.

Ushbu kalit tushunchalarga ta‘rif berishda fransuz adabiyotshunosi R.Bartning ta‘riflaridan foydalanilgan bo‘lib, unga ko‘ra, “asar” (inglizcha talqinda “work”) moddiy obyektidir va u kitob yoki rasm kabi moddiy shaklda mavjuddir. “Matn” esa, (inglizcha talqinda “text”) ochiq va cheksiz bir tuzilma bo‘lib, uning chegaralari aniq emas va u doimo o‘zgarib, yangi ma‘nolar hosil qiladi²⁶.

Har qanday asar matndan tashkil topadi. Bundan tashqari, *matn*, bu til qonunlariga bo‘ysunuvchi, mustaqil mavjudlikka ega belgilar ketma-ketligidir. Diskurs esa matnning kontekstual va chuqur talqinidir, u yangi ma‘nolar yaratadi va o‘zgaruvchan (burilishli) xususiyatga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan olganda matn talqin qilinishi bilan diskursga aylanadi²⁷.

Diskursiv rekonstruksiya muammosiga to‘xtalish asnosida *rekonstruksiya* tushunchasiga ta‘rif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra bu so‘z *qayta tiklash* ma‘nosini

²¹ Karimov G.K. O‘zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha) Qayta ko‘rilgan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri. “O‘qituvchi” nashriyoti. – Toshkent, 1975. – B.146-147.

²² Karimov G.K. O‘zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha) Qayta ko‘rilgan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri. “O‘qituvchi” nashriyoti. – Toshkent, 1975. – B.247-248.

²³ G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. – B.12.

²⁴ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik. – Toshkent, 2005. – B.14.

²⁴ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik. – Toshkent, 2005. – B.15.

²⁵ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik. – Toshkent, 2005. – B.15-16.

²⁶ Roland Barthes. Image Music Text. Essays selected and translated by Stephen Heath. – London: Fontana Press, 1977.

²⁷ Калиш Е.Е. Реконструкция дискурса в целях перевода. Теоретические проблемы. – Иркутск, 2018. – С.13.

anglatadi va qadimiy tillarga oid yozma yodgorliklardagi tasdiqlanmagan dalillarini muntazam ravishda yozma manbalar yoki tirik nutqda qo‘llaniluvchi faktlarni solishtirish orqali qayta tiklashni o‘z ichiga oladi²⁸.

Keltirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, diskurs shoir o‘z his-tuyg‘ularini til orqali ifoda etishi bilan boshlanadi; tarjimon esa shu diskursga kirib, uni o‘z tilida qayta kodlaydi. Shuning uchun diskursiv rekonstruksiya she‘riy tarjimada muhim va murakkab bosqich sifatida qaraladi.

Ta‘kidlash joizki, she‘riy (nazmiy) tarjima nasriy tarjimaga qaraganda murakkabroq bo‘lib, unda diskursiv rekonstruksiyani to‘laqonli amalga oshirish oson emas. Bunda tarjimon tarjima qilinayotgan xalqning madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti haqida ham chuqur bilimga ega bo‘lishi zarur²⁹. Abdulla Avloniy tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan rus masallari hamda Oybek tomonidan amalga oshirilgan *Yevgeniy Onegin* nazmiy romanining o‘zbek tiliga tarjimalari ushbu diskursiv rekonstruksiya masalasiga yorqin misol bo‘la oladi.

Diskursiv rekonstruksiya so‘z ma‘nosining talqini kontekstga naqadar bog‘liq ekanligini haqida J.Firth so‘zning o‘z ma‘nosini to‘laqonli ifodalay olishi har doim faqatgina kontekstga bog‘liq ekanligini alohida ta‘kidlagan³⁰.

Yana bir olim, B.Rasselga ko‘ra esa, inson bir tushunchani to‘liq anglash uchun nafaqat uning nomini bilishi, balki uni real hayotda boshdan kechirgan bo‘lishi ham zarur³¹.

Demak, diskursiv rekonstruksiya amalga oshirmoqchi bo‘lgan tarjimonning albatta har qanday holatda ham o‘zi talqin qilayotgan diskursga oid empirik bilim va tajribaga ega bo‘lishi taqozo etiladi.

Bobning **“Poetik diskursda muallif individual uslubi va tarjimonning ijodiy yondashuvi masalasi”** nomli uchinchi fasldan o‘rin olgan muallif individual uslubi masalasida *lingvistik, komunikativ va kognitiv* jihatlar ajratib ko‘rsatiladi³².

Lingvistik jihat ham bir nechta qismlardan iborat bo‘lib, ularga *fonologik, morfologik, sintaktik va leksik* sathlar kiradi.

Fonologik sath so‘zlarning aynan qofiya va ohang paydo qilish maqsadidagi o‘ziga xos tarzda tanlanishi va joylashtirilishi she‘rning misra chegaralari hamda uning umumiy hajmini belgilab beradi³³. Bunga *onomatopiya, alliteratsiya, qofiya* kabi unsurlar oiddir³⁴.

²⁸ Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов. – Рипол Классик. 2013. – С. 372.

²⁹ Venuti L. The translator's invisibility // Criticism. – 1986. – Т. 28. – №. 2. – P.179-212.

³⁰ Firth J.R. The technique of semantics. Read at a meeting of the Philological Society on Friday, 1st February, 1935 Transactions of the Philological Society. – P.36-73.

³¹ Bertrand R. “Logical Positivism,” Revue Internationale de Philosophie, IV (1950). – P.3.

³² Chendey N.V. Linguistic and conceptual features of poetic discourse // Development of philology and linguistics at the modern historical period. – P.135.

³³ Coleman R.G.G. Poetic diction, poetic discourse and the poetic register // Proceedings-British academy. – Oxford university press inc. – T.93. – 1999. – P.27.

³⁴ Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа, 1977. – С.115-118.

Morfologik sathda morfemalar, asosan, asar leksikonini tavsiflovchi morfemalar ko‘rib chiqiladi³⁵. Bunda so‘zni shaklan va ma‘no jihatidan o‘zgartirish nazarda tutiladi³⁶.

Sintaktik sathda qo‘llaniluvchi vositalar ro‘yxati ancha keng bo‘lib, ulardan ba‘zilari quyidagilardir:

a) *uslubiy inversiya – gap bo‘laklarining tartibini she‘riy ohangni ta‘minlash maqsadida maqsadli o‘zgartirish;*

b) *ajratilgan kostruksiya – iborani jumlaning asosiy qismidan ajratgan holda, u bilan ma‘no jihatidan aloqadorlikni saqlab qolish;*

c) *parallel iboralar – o‘xshash grammatik unsurlarning she‘r tarkibida muayyan oraliqda takrorlanishi*³⁷.

She‘riy uslubiyatning leksik sathiga oid vositalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) *metafora – ma‘noni xususiyatini bir obyektidan ikkinchisiga ko‘chirish;*

b) *metanimiya – bir narsani o‘z nomi bilan emas, balki unga tegishli xususiyat vositasida nomlash;*

c) *ironiya – so‘zning lug‘viy ma‘nosini bilgan holda, vaziyatdan kelib chiqib uni teskari mazmunda qo‘llash*³⁸.

She‘r faqat o‘quvchi uni *komunikativ* hodisa sifatida qabul qilganidagina, ya‘ni undagi denotatsiya, konnotatsiya va ma‘nolar o‘zaro qanday aloqada ekanini anglaganidagina, to‘liq tushuniladi va zavq uyg‘otadi³⁹.

Bizningcha, ko‘rib o‘tilgan she‘riy komponentni tasvirlash vositalarining tanlovi muallifning hissiy holati vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Bunday tanlovlar o‘quvchida kognitiv (aqliy) qiziqish uyg‘otadi va bu jarayon turli leksik hamda sintaktik vositalar orqali ifodalanadi⁴⁰.

Demak, poetik diskursning lingvostilistikasida kognitiv jihat muallif hamda o‘quvchi/tinglovchi jihatidan muayyan aqliy safarbarlikni talab qilgan ekan.

Shuni qo‘shimcha qilish kerakki, asar muallifining badiiy diskursdagi o‘rnini baholashda *idiostilistika* juda muhim, chunki u ijodkorning o‘ziga xos uslubini belgilaydi. *Idiostil* atamasi bo‘yicha bugunga qadar tugal ta‘rif mavjud bo‘lmasa-da, umumiy holatda uni muallifning betakrorligini belgilab beruvchi omillar majmuasi o‘laroq talqin qilish mumkin⁴¹.

Shu nuqtai nazardan olganda, umuman olganda ingliz Romantik she‘riyati vakillarining ijod namunalarini, jumladan Robert Byorns ijodini o‘zbek o‘quvchisiga yetkazish murakkab va ko‘p qirrali jarayondir, chunki bu asarlar o‘ziga

³⁵ Van Dijk T.A. Some aspects of text grammars: A study in theoretical linguistics and poetics. – Walter de Gruyter GmbH & Co KG, 2015. – P.224.

³⁶Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B.30-31.

³⁷ Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа, 1977. – С.187-191.

³⁸Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа, 1977. – С.129-136.

³⁹ Akhmanova O. (ed.). Linguostylistics: theory and method. – Walter de Gruyter GmbH & Co KG, 2019. – P.40

⁴⁰ Monakhova, E. Cognitive and pragmatic approach to using stylistic devices in English literary discourse. Training, Language and Culture, 3(1), 37-52. doi: 10.29366/2019tlc.3.1.3 – P.46.

⁴¹Чернышева Т.А. Идиостиль: лингвистические контуры изучения //Вестник Череповецкого государственного университета. – 2010. – №. 1. – С.30-31.

xos betakror uslub, kechinma, zamon ruhi va madaniy kontekstni o‘zida mujassam etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**She’riy matnni asliyat (ingliz) tilidan o‘zbek tiliga o‘g‘irishning strategik asoslari**” deb nomlanadi va uning birinchi fasli “**Ingliz va o‘zbek tillarida she’riy asarlar tarjimasida muvozanat va muvofiqlikni saqlash strategiyalarining maqomi**”ga bag‘ishlangan.

Ta’kidlash joizki, she’riy tarjimada muvozanat va muvofiqlik masalalari alohida o‘rin tutadi. Ilmiy ishda ushbu tushunchalarga L.Barxudarov va Y.Nayda kabi olimlar fikrlaridan kelib chiqqan holda ta’rif berilgan^{42,43}. Tarjimada muvofiqlik hamda muvozanatni ta’minlash uchun muayyan yo‘qotishlarning yuzaga kelishi muqarrardir. Biroq bu omil tarjimanni tarjimadan voz kechishiga aslo sabab bo‘lmasligi kerak⁴⁴.

Muvozanat orqali tarjima tilida asliyat ma’nosini qayta tiklash haqida gapirar ekan, V.Komissarov A.Noybertdan iqtibos keltirgan holatda muvozanat deganda faqatgina asliyat matnining tarjimadagi lisoniy qayta yaratilishi emas, balki uning *pragmatik* jihatdan ham muvofiq bo‘lishiga alohida e’tibor qaratadi. Bundan tashqari badiiy tarjimada *ekvivalentlik* omili ham mavjud bo‘lib, ekvivalent tarjimada til belgilar yig‘indisidan iborat matn mazmuni tarjimada vazifaviy qayta yaratiladi⁴⁵.

She’riy tarjimada matndagi muvozanatni ta’minlovchi qator o‘zgarishlar majmuasi mavjud bo‘lib, ular *tabdil (transformatsiya)* deb nomlanadi.⁴⁶ Sh.Sirojiddinov va G.Odilova o‘zlarining badiiy tarjimaga bag‘ishlangan ilmiy ishida tabdilni amalga oshirishning besh xil turini keltiradilar va ularga *qayta qurish, almashtirish, qo‘shish, tushirib qoldirish, va leksik semantik almashinuvlarni* kiritadilar.⁴⁷

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “**Mazmunni muvozanatni saqlash masalalari nisbiylik kesimida**” deb nomlanib, unda birinchi o‘rinda mazmuniy muvozanatga ta’rif beriladi: “mazmuniy muvozanat deganda tarjima asliyat mazmunini to‘liq aks ettirishi, unga yuqori darajada mazmunan adekvat bo‘lishi tushuniladi.”⁴⁸

Bundan tashqari I.G‘ofurovning muvozanatga bergan “so‘zning ma’no va ifodaviy uyg‘unligi, so‘z kuchi va hamohang ishlatilishidir⁴⁹” ko‘rinishidagi ta’rifi mavjud bo‘lib, bu ta’rif muvozanatga yanada aniqroq nazar tashlash imkonini beradi.

Mazmuniy muvozanat doirasida dissertatsiyada ingliz Romantik she’riyati vakillarining qator asarlari tahlil qilingan bo‘lib, shular jumlasida Lord Bayronning

⁴² Sirojiddinov Sh. Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, 2011. – B. 49.

⁴³ Жутовская Н.М., Поэтический перевод и проблема адекватности. – С.342.

⁴⁴ Беспалова Н.В. Особенности перевода поэтического текста с русского на английский язык // Перевод в меняющемся мире: материалы Международной научно-практической конференции (Саранск, 19-20 марта 2015 г.). М.: Издательский центр «Азбуковник». – 2015. – С.20.

⁴⁵ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. –Toshkent: Fan, 2005. – B.55.

⁴⁶ Кулемина К.В. Основные виды переводческих трансформаций // Нефтегазовые технологии и экологическая безопасность. – 2007. – №. 5. – С.143.

⁴⁷ Sirojiddinov Sh. Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, 2011. – B.153.

⁴⁸ Sirojiddinov Sh. Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent, 2011. – B.17.

⁴⁹ I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarova. Tarjima nazariyasi. –Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – B.196-197.

“*She walks in beauty*” “*Go ‘zal borur*” borur she’rining tahlili taqdim etilgan. Tahlil natijalari quyidagi statistik ma’lumotlarni yuzaga chiqardi:

<i>Asliyat va tarjimaga oid xususiyatlar</i>	<i>Miqdoriy ko ‘rinishi</i>
<i>Original so ‘z jami</i>	<i>119ta</i>
<i>O ‘zbekchada so ‘z jami</i>	<i>86ta</i>
<i>So ‘zma so ‘z tarjima qilingan so ‘z originalda</i>	<i>61ta – 51%</i>
<i>So ‘zma so ‘z tarjima qilingan so ‘z o ‘zbekchada</i>	<i>51ta – 59%</i>
<i>Jami tabdil qo ‘llanish holatlari</i>	<i>19 ta – 100%</i>
<i>Leksik-semantik almashinuv</i>	<i>9ta – 69%</i>
<i>Qayta qurish</i>	<i>4ta – 31%.</i>

1-jadval.

Birinchi jadvaldagi raqamlardan ko‘rinib turibdiki, mazkur she’r tarjimasida mazmuniy muvozanatga yaqinlashilgan, deyish mumkin.

Qolaversa, ilmiy ishda mazmuniy muvozanatga yaqinlashish darajasi past bo‘lgan tarjimalar ham tahlil qilingan.

Ikkinchi bobdagi uchinchi fasl “**Poetik matnning funksional qiymatini tarjimada uyg‘un aks ettirish muammolari**” deb nomlanadi.

Funksional muvozanat masalasida I.Alekseeva Y.Naydaga suyangan holda, asliyatdagi matn o‘z o‘quvchisida qanday taassurot qoldirish uchun yozilgan bo‘lsa, va agar tarjimada shu ta’sir saqlanib qolsa, tarjimada asliyatning vazifaviy qiymati aks etgan hisoblanadi deb aytadi⁵⁰. L.Kirichukning funksional muvozanat uchun asliyatdagi matn o‘z o‘quvchisida paydo qilgan hislarni tarjima matni ham paydo qila olishi kerakligi haqidagi fikrini⁵¹ bunga ilova qilish mumkin.

Umumlashtirgan holda vazifaviy muvozanatni “A matn ega bo‘lgan ta’sir kuchini B matnda qayta yaratish” deb ta’riflash o‘rinli bo‘ladi, nazarimizda.

Vazifaviy muvozanat doirasida Uilyam Uordzuortning “*Lines written in early spring*” – “*Bahoriy satrlar*” nomli she’riga tahliliy nazar solingan bo‘lib, unda quyidagi statistic ma’lumotlarga guvoh bo‘lish mumkin:

<i>Asliyat va tarjimaga oid xususiyatlar</i>	<i>Miqdoriy ko ‘rinishi</i>
<i>Original so ‘z jami</i>	<i>153ta</i>
<i>O ‘zbekchada so ‘z jami</i>	<i>111ta</i>
<i>So ‘zma so ‘z tarjima qilingan so ‘z originalda</i>	<i>73ta – 48%</i>
<i>So ‘zma so ‘z tarjima qilingan so ‘z o ‘zbekchada</i>	<i>73ta – 66%</i>
<i>Jami tabdil qo ‘llanish holatlari</i>	<i>22 ta – 100%</i>
<i>Leksik-semantik almashinuv</i>	<i>14ta – 69%</i>
<i>Qayta qurish</i>	<i>8ta – 31%.</i>

2- jadval.

⁵⁰ Алексеева И.С. Введение в переводоведение. Учеб. Пособие для студ. филол и лингв. фак. высш. учеб. заведений. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ; М.: «Академия». 2004. – С.143-144.

⁵¹ Kyrylchuk. L. Translation strategies, methods and techniques: in pursuit of translation adequacy. Research Trends in Modern Linguistics and Literature, 2018. – P.73.

Ikkinchi jadvaldagi raqamlarga qaraganda funksional muvozanatga yaqinlashganlik darajasini qoniqarli deb baholash mumkin.

Bundan tashqari ingliz romantik shoiri Jon Kits (John Keats) qalamiga mansub “*On the Sea*” “*Dengiz*” sonetining rus tilidan Safar Olloyor tomonidan qilingan tarjimasini tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimada vazifaviy muvozanat darajasi ancha past. Raqamlar 3- jadvalda ko‘rsatilgan.

<i>Asliyat va tarjimaga oid xususiyatlar</i>	<i>Miqdoriy ko‘rinishi</i>
<i>Original so‘z jami</i>	<i>109ta</i>
<i>O‘zbekchada so‘z jami</i>	<i>67ta</i>
<i>So‘zma so‘z tarjima qilingan so‘z originalda</i>	<i>11ta – 10%</i>
<i>So‘zma so‘z tarjima qilingan so‘z o‘zbekchada</i>	<i>11ta – 16%</i>
<i>Jami tabdil qo‘llanish holatlari</i>	<i>15 ta – 100%</i>
<i>Kompensatsiya</i>	<i>10ta – 66%</i>
<i>Tushirib qoldirish</i>	<i>3ta – 20%</i>
<i>Qo‘shish</i>	<i>1ta – 6%</i>
<i>Sinonimik tarjima</i>	<i>1ta – 6%</i>

3-jadval.

Ikkinchi bobning to‘rtinchi fasli “**Tuzilmaviy muvozanat: sintaktik va morfologik shakllarning tarjima tilida qayta tiklanishi**” deb nomlanadi.

Tuzilmaviy muvozanat haqida gapirar ekan, V.Komissarov tillarning leksik, grammatik xususiyatlari tufayli tuzilmaviy muvozanatga erishishning imkonsiz ekanligini ta’kidlaydi.⁵² Shunday ekan, tuzilmaviy muvozanat asliyat va uning tarjimasini o‘rtasida imkon boricha yaqin shakliy muvofiqlikni yuzaga keltiradi.⁵³

Misol tariqasida Lord Bayronning “*She walks in beauty*” “*Go‘zal borur*” she’ridan parchani keltirish o‘rinli:

*Thus mellowed¹ to that tender light²
Which heaven³ to gaudy day⁴ denies⁵.*⁵⁴

O‘zbekcha tarjimada:

*Ushbu yorug‘likdan² erigan¹ osmon³
Uni ravshan kunga⁴ bermas⁵, qilar rashk.⁵⁵*

Qora harflar bilan yozilgan so‘zlarning asliyatdagi va ularning tarjimalaridagi tartib raqamlariga e’tibor berilsa, tarjimadagi she’rning strukturasi asliyatdan naqadar katta farq qilishini ko‘rish mumkin. Bu esa, yuqoridagi fikrning yaqqol isbotidir.

Ikkinchi bobning so‘nggi, bechinchi fasli “**Kontekst, mentalitet va stilistik tafovutlar uyg‘unligini ta’minlash (pragmatik muvozanat)**” deb nomlangan. Pragmatik muvozanat haqida umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, u asliyat matnining muallifi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni tarjima tilida aks ettirishdir⁵⁶.

⁵² Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – 2007. – С.119.

